AHOLINING TURLI YOSH QATLAMLARI ORASIDA SHAXMAT O‘YINI ORQALI SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Xoliqov Umidjon Qo‘chqarovich - Guliston davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, v.b. dotsent
shax75.75 @ mail.ru

Shaxmat farzandlarda ancha kech ochilishi mumkin bo‘lgan qirralarini yoki umuman ochilmasligi mumkin bo‘lgan qirralarini ochadilar**.**
Tarix fanlar doktori M.Muxiddinov.

***Annotatsiya*:** Maqolada yoshlarni shaxmat o‘rganish orqali mantiqiy fiklash ham irodani shaklantiradi, shaxmat o‘yinlaridan foydalanish orqali ularning diqqat, idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashini o‘stiradi va rivojlantirishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shaxmat o‘yinini o‘rgatshi usullari, yo‘llari va samaradorligi yoritilgan

Kalit so‘zlar: yoshlar, shaxmat o‘yin, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, shaxsiy sifatlarini.

Mamlakatimizda shaxmatni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish va uni ommaviy sport turiga aylantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanshi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yoshlarni tanlash, saralab olish va ularni professional shaxmatchilar va xalqaro grossmeysterlar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3906 sonli qaroriga muvofiq maktab dasturlari doirasida 150 ta umum ta’lim maktablarining o‘quvchilarini tajriba tariqasida shaxmatga o‘qitishni tashkil etish vazifasi belgilangan edi.

2021 yil 14 yanvarda “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarori qabul qilindi.

Shu qaror, 150 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchilarini tajriba tariqasida shaxmatga o‘qitishni tashkil qilish amaliyoti kengaytirilib, yana qo‘shimcha 150 ta maktab (shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda (Toshkent viloyatidan tashqari) 10 tadan, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 15 tadan maktab) shaxmatga ixtisoslashtiriladi;tegishli 1 000 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida 2, 3 va 4-sinf o‘quvchilarini “Jismoniy tarbiya” fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi hamda ularga metodik yordam ko‘rsatiladi qolgan barcha maktablarning 2, 3 va 4-sinf o‘quvchilari “Jismoniy tarbiya” fani doirasida shaxmatga o‘qitilish.

Haqiqatdan ham, davlatimiz mustaqillik sharoitida ta’lim sohasida, jumladan, umumiy o‘rta ta’lim yo‘nalishida o‘qitishni mantiqiy fikrlash asosida tashkil etish hozirgi kun jamiyat taraqqiyotining talabidan kelib chiqmoqda. Hozirgi paytda umumiy o‘rta ta’lim maktablari yoshlarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish jarayonida shaxmat mashg‘ulotlariga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shaxmat faqat sport o‘yinigina bo‘lib qolmay, balki inson xarakteri va shaxsining shakllanishiga faol ta’sir ko‘rsatish sifatida ham insonlarni tafakkur qilishga, mantiqiy fikrlashga, mas’uliyatli bo‘lish va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga o‘rgatadi. Shaxmatning inson hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida ko‘agina ilmiy tadqiqotlar (M.Muhiddinov, R.Yevqaev, A.Toshxo‘jaev) olib borilgan. Shuningdek, buyuk tarixiy shaxslar (Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va b.) o‘z faoliyatlarida shaxmat (shatranj) o‘yinlaridan foydalanganliklari, uning ijobiy ahamiyati haqida tarixiy manbalar guvohlik beradi.

Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ular tafakkuri va dunyoqarashlarini zamon talablari darajasida rivojlantirishda shaxmat o‘yini borasida olib borilgan tadqiqot ishlari ularda asoslab berilgan ilmiy g‘oya va nazariyalarni chuqur o‘rganib chiqish

va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shaxmat o‘yini kishi harakatining tarkib topishida va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shaxmat o‘yini yoshdan o‘z diqqat markazini uzoq vaqt davomida qattiq ishga solishni hamda keng mantiqiy fikrlashni, faol bo‘lishni, o‘yinchidan tashbbuskor, dadil va ijodkor bo‘lishni talab qiladi. mana shu xususiyatlarga eaga bo‘lmagan shaxmatchi shaxmatda yuqori ko‘rsatkichlarga erisha olmaydi.

Ba’zi bolalardagi parishonxotirlik xususiyatlari ular shaxmat o‘yini bilan jiddiy shug‘ullana boshlagan davrlardan keskin ravishda kamaya boradi. Albatta, bu hol shaxmat o‘yinining kishi ongi va ruhiyatiga ko‘rsatgan ta’sirining natijasidir. .

Hozirgi zamon psixologlarining fikricha, harakteri og‘ir, badjaxl va urushqoq bo‘lgan bolalarga shaxmat bilan shug‘ullanish tavsiya etilar ekan. Darhaqiqat, shaxmat o‘ynaganda har bir yurish miyada hisob-kitob qilinadi. Boshqalar bilan maslahatlashib, kelishib o‘ynab bo‘lmaydi. Har bir shaxmatchi o‘zini bilimi va kuchlaridan foydalangan holda yahshi o‘ynashga harakat qiladi. Hozirgi kunga kelib shaxmat qonun-qoidalari ancha takomillashgan va islohlashgan. Hususan raqibga hurmat, do‘stona o‘yinlar madaniyati va ma’naviyati rivojlangan. Shaxmat haqida ko‘p mulohaza qilish mumkin, chunki shaxmatni nafis estetikaga qiyoslanadi. Bolada yuksak did, topqirlik, hozirjavoblik xislatlar tarkib topadi. Buni shaxmatni tushungan kishigina his qiloladi. Kuchli shaxmatchi besh qirrasi mavjud bo‘ladi: 1) qobilyat 2) harakter 3) sog‘lik 4) ruhiy, jismoniy tayyorgarlik va albatta 5) maxsus tayyorgarlik.

Shaxmat shubxasiz foydadir, u odamning intelektual o‘sishiga ko‘maklashadi va inson tafakkurini boyitadi. Kuchli shaxmatchining shu o‘yinga bo‘lgan qiziqishi uning fikrlashi muhim rol o‘ynab, duyoqarashi, mulohaza qilish qobiliyati muntazam o‘sib boradi. Xalqimizda “yetti o‘lchab bir kes”, degan maqol bor. Shaxmat o‘yiini zarur bo‘lganda o‘n, yigirma karra o‘lchashni taqazo etadi. Ison miyasining hali fanga ma’lum bo‘lmagan qirralari ishga tushadi. Nafqat raqib, hatto o‘zi ham hayratlanadigan yechimlarni izlab topishga erishadi.

Shaxmat o‘yini yoshlarning xotirasini kuchaytirishda, fikrlashdagi parishonxotirlikni yo‘qotishda muhim omil vazifasini bajaradi. Yuqorida bildirilgan fikrlar yoshlarni ijtimoiy taraqqiyotga mos holda tarbiyalash, ularning ongi, tafakkuri va dunyoqarashini zamon talablari darajasida shakllantirish borasida bir qancha olimlar o‘z tadqiqot ishlarida ilmiy asoslangan fikrlarini bayon qilishgan. Ularga tayangan holda, biz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida shaxmat o‘yinlarini tashkil qilish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

-shaxmat o‘yinlari asosida yoshlarning mantiqiy fikrlash, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishda milliy metodologik, tarixiy va mantiqiy ilmlarga tayanish;

-yoshlarda shaxmat o‘yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda nisbatan yangicha yondashishni qaror toptirish;
-yoshlarda shaxmat o‘yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy shakllari va tamoyillarini ishlab chiqish;
-o‘rta maktab tizimidagi fakultativ darslar rejasiga shaxmat o‘yini kursini kiritish;
-maktab yoshlari orasida har yili shaxmat bo‘yicha maktab, xo‘jalik, tuman, viloyat, respublika an’anaviy musobaqalarini o‘tkazish;
-iqtidorli, mantiqiy fikrlaydigan bolalar orasidan respublika shaxmat maktabi tashkil etish chora va tavsiyalarini bildirmoqchimiz.
Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, XXI - intellektual yoshlar asrida ham shaxmat o‘yinlari katta aqliy tarbiya vositasi va yosh yoshlar dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili bo‘lib qoladi. SHaxmat yoshlarni aqliy, axloqiy, ruhiy, ma’navnviy jihatdan sog‘ligini ta’minlaydi. Shaxmat o‘quvchi-yoshlarning fanlarni a’lo darajada o‘zlashtirishga yo‘l ochib beradi. Shaxmat o‘ynash qabiliyati shakllangan bola hech qachon yomon yo‘lga kirmaydi, shundan komillikka intilib yashashga o‘rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3906 sonli qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-4954-son

3. Muhiddinov M. Kataklarda yashiringan olam. -T.: O‘zbekiston, 1976.

4. Muhiddinov M. O‘n to‘qqiz chempion. –T.: Yulduzcha, 1998.

5. Xalayev M , Shaxmat alifbosi –T : Tafakkur -2015

6. “Ma’rifat” gazetasi. 2016 yil 27 fevral № 17 son 15 bet.

7. Vershinin M. A. Teoriya proektirovaniya sistemы formirovaniya logicheskogo mыshleniya shaxmatistov: dis. ... doktora pedagogicheskix nauk, Volgogr. gos. akad. fiz. kulturы. — Volgograd, 2005. — 506 s.

8. Maxmudov A.X., Djuraev R.X., AxunjanovA.T. Didakticheskiy potensial shaxmatnoy igrы.- M.:Nauka i obrazovanie segodnya, Moskva, №6 (53), 2020.- Chast 2.- S. 70-71

9. Kostenyuk A. K. Trebovaniya sovremennogo mira k sistemam obrazovaniya. Shaxmatы — kak sposob stimulirovaniya intellektualnogo razvitiya detey // Materialы Mejdunarodnoy nauch.-prak. konf. — Ch. 3. — Chelyabinsk : Izdatelskiy sentr YuUrGU, 2011. — S.157.

10. Tarasova O. V. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya logicheskoy kulturы mladshix shkolnikov sredstvami shaxmatnoy deyatelnosti: dis. ... kand. ped. nauk.- Kazan, 2005. — 209 s.